

Saidahrar BAHODIROV
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

**MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR BANDLIGINI TA’MINLASH
YO‘NALISHLARI**

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif tomonidan olib borilgan ilmiy va amaliy izlanishlar natijasida shakllantirilgan ma’lumotlar tahlili asosida mamlakatimizdagi yoshlarni bandligini ta’minlash yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, davlat tomonidan ajratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish ularni zamon talablariga muvofiq mehnat bozorida ehtiyoji yuqori bo‘lgan kasb-hunarga qayta o‘qitish, kasanachilik faoliyatiga jalb qilishga alohida e’tibor qaratish, bandlikni ta’minlash va rag‘batlantirish subsidiyalaridan foydalanish va ishsizlikni oldini olish kabi takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Bandlik, yoshlar bandligi, kasanachilik, kasb-hunarga o‘qitish, jamoat ishlari, bank kreditlari, mehnat resurslari, mehnat bozori, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limlari, ishsizlik.

**DIRECTIONS OF PROVIDING YOUTH EMPLOYMENT IN OUR
COUNTRY**

Abstract: This article, based on the analysis of data obtained as a result of scientific and practical research conducted by the author, examines the implementation of state policy on youth employment in our country, the effective use of opportunities provided by the state. - proposals are made for professional retraining, paying special attention to involvement in economic activity, ensuring employment and the use of incentive subsidies, and preventing unemployment.

Key words: employment, youth employment, home economics, vocational training, public works, bank loans, labor resources, labor market, poverty reduction and employment departments, unemployment.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning har bir hududida o'zining ko'zga ko'rinarli va ijobiy samarasini berayotgani barchamizga birdek ayon. Biroq shuni ham aytish lozimki, yurtimizda mehnat bozorida amalga oshirilayotgan faol siyosat natijasida yoshlarni ish bilan ta'minlash darajasi tobora o'sib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimiga kiruvchi tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarining o'rni juda muhim darajada ekanligi, aholi va yoshlar orasidagi band bo'lmagan qismiga ko'rsatiladigan bandlik xizmatlari, jumladan, yoshlarni bo'sh ish o'rinlariga ishga joylashtirish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga qayta o'qitish, haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish kasanachilik va subsidiyalar ajratish orqali ularni bugungi kunda ijtimoiy o'rnini egallashiga ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltirish, bu yo'ldagi asosiy masala ekanligi barchamizga birdek ma'lum. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, kelajakdagi mustaqil O'zbekistonning yo'nalishini belgilab beruvchi yagona kuch – bu yoshlar hisoblanadi[1].

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martdagi videoselektor yig'ilishida yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, avvalo, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, yosh xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida urg'u bergan edi:

Ma'lumki “Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning

o‘zi ko‘rsatib turibdi,”-dedi Prezident Sh.Mirziyoyev. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etgan edi.

Shu bilan birga yoshlarga sifatli ta‘lim berish, kasb-hunarga o‘qitish va bandligini ta‘minlash choralariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu ishlarni mahallada tashkil etish bo‘yicha vertikal boshqaruv tizimi yaratilgan. Mamlakatimizdagi har bir mahallaga fidoyi va tashabbuskor yoshlar yetakchilari tayinlandi. Yurtboshimiz yaratib bergan bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yildi.

So‘ngi yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma‘naviy etuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda[2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon miqyosidagi yoshlar sonining o‘sishi kutilayotgan bo‘lsa-da, yoshlar uchun, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan turg‘un qishloq joylarida yashovchilar uchun ish va tadbirkorlik imkoniyatlari cheklanib qolmoqda, ayni shu haqda ma‘lumotlarni tahlil qilamiz.

Shu kunga qadar chet ellik va mamlakatimiz taniqli olimlari tomonidan mazkur yo‘nalishda juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, professorlar Sh.R.Xolmo‘minov va K.Z.Xomitov o‘zlarining tadqiqotlarida yoshlarni ish bilan band qilishda mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan samarali tashkiliy mexanizmlarining va chora tadbirlar ta‘siri aniq baholangan. Uning asosida yoshlarni ish bilan ta‘minlashning zamonaviy turlari va vositalarini rivojlantirish, ular uchun mehnat bozorida yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishga muhtoj yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish kurslariga yo‘naltirish, va qayta tayyorlashning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritib bergan[3].

Ma'lumki tadqiqotchi M.Mirzakarimova tomonidan ishga joylashtirish, ayniqsa, yoshlar bandligi – bu davlat ahamiyatiga moyil masalaligi, sababi aynan yoshlar yurtimiz kadrlar salohiyatini tashkil qilishi, yoshlar bandligini ta'minlashda davlat iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini muhim hamda doimiy vazifa ekanligini alohida ko'rsatib o'tgan. Inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirishda har qanday jihatdan yoshlar mehnatidan unumli foydalanish sohasidagi milliy strategiyaga bog'liqligi, bugungi kun mehnat bozoridagi yoshlar ahvolini baholash zarurati yoshlar – bu mamlakatimiz kelajagi ekanligi va butun jamiyatning istiqboldagi rivojlanishi ular faoliyatining boshlang'ich sharoitlariga bog'liqligi bilan belgilanishi hamda bugungi yoshlar ko'p jihatdan jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata bilishi, shu bilan bir qatorda, yoshlar ishga joylashishda katta qiyinchiliklarga uchrayotgan ijtimoiy nochor toifalardan biri hisoblanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari dahlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq, va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi [4].

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning quyi tizmidagi tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari tomonidan ishsiz va band bo'lmagan aholiga ko'rsatiladigan bandlik xizmatlari va yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga qayta o'qitish, jamoat ishlariga jalb qilish ularni ishsizlik davrida moddiy jihatdan

qo‘llab-quvvatlash, kasanachilikka va imtiyozli subsidiya ajratish orqali bandligiga ko‘maklashish borasidagi ishlarni tahlil qilamiz.

METODOLOGIYA

Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish va tahlil kabi usullar samarali qo‘llanildi, shuningdek yoshlarni band qilish tizimida mavjud muammolar va ularni yechimlari, bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

NATIJA VA TAHLIL

Inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, ko‘p jihatdan yoshlar mehnatidan foydalanish sohasida qanday taktikasi belgilanganligiga bog‘liq. Yoshlar ko‘p jihatdan jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy shaxslar hisoblanmoqdalar. Shu bilan birga, yoshlar mehnat bozorida ish topishda katta qiyinchiliklarga to‘g‘ri keladigan eng zaif toifalardan biri hisoblanadi. Mehnat bozori munosabatlari xususiyatlariga qarab, aksariyat mamlakatlarda davlat aholi va yoshlarni ish bilan ta’minlanganlik xizmatining funksiyalari va faollik darajasi belgilab beriladi. Masalan: Kanada, Shvetsiya, Germaniya, Yaponiya va boshqa bir qator mamlakatlarda ish bilan bandlik sohasidagi dasturlarini ishlab chiqishi va hayotga tatbiq etish, ishchi kuchiga bo‘lgan talab va uning taklifi o‘rtasidagi roli ushbu xizmatga yuklatilgan. Shu bilan bir paytda, Buyuk Britaniya, Avstraliya va AQSH davlatlarida ish bilan bandlik xizmatining o‘rni u qadar faol emas, sababi mazkur mamlakatlarda ishga joylashtirish bo‘yicha xususiy va pullik markazlari ham faoliyat ko‘rsatadi, mazkur

yo‘nalishida ishsiz aholi va yoshlarning ish izlashi bo‘yicha javobgarligi o‘zlariga yuklatiladi [5].

Ma‘lumot uchun aytishim joizki, dunyo bo‘ylab 1,2 milliard yoshning 88 foizga yaqini rivojlanayotgan mamlakatlarda yashar ekan. Global miqyosida yoshlar ish bilan ta‘minlangan qashshoqlarning qariyb 24 foizini tashkil qilsa, mazkur dinamika Afrikada, ayniqsa sezilarli bo‘lib, u yerda yoshlarning 70 foizdan ko‘prog‘i kuniga 2 dollardan yoki undan kam AQSH dollari miqdorida pul ishlashadi [6,7].

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda Yoshlar mehnat resurslari balansi to‘g‘risida hisob-kitoblarga asosan ishlab chiqilgan ma‘lumot.

T/R	Hududlar nomi	Iqtisodiy faol yoshlar	Jami iqtisodiy faol aholiga nisbatan %	Band yoshlar	Jami bandlarga nisbatan %	Ishga muhtoj yoshlar	Jami ishsizlardan ulushi %	Ishsizlik darajasi %
JAMI		5 152 152	34,3	4 423 673	32,3	728 479	55,1	14,1
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	263 639	33,4	224 649	31,2	38 990	54,9	14,8
2	Andijon viloyati	489 562	34,5	417 350	32,3	72 211	55,7	14,8
3	Buxoro viloyati	270 735	31,5	230 959	29,5	39 776	52,9	14,7
4	Jizzax viloyati	212 635	35,2	181 563	33,1	31 071	55,7	14,6
5	Qashqadaryo viloyati	443 213	33,2	375 968	31,0	67 245	54,5	15,2
6	Navoiy viloyati	162 089	35,9	142 322	34,3	19 767	55,1	12,2
7	Namangan viloyati	435 731	36,1	375 195	34,1	60 536	56,6	13,9
8	Samarqand viloyati	589 063	35,9	503 682	33,8	85 380	56,2	14,5
9	Surxandaryo viloyati	393 756	35,5	337 190	33,5	56 565	55,7	14,4
10	Sirdaryo viloyati	117 877	31,6	100 995	29,8	16 882	49,1	14,3
11	Toshkent viloyati	430 005	32,6	369 195	30,7	60 810	52,1	14,1
12	Farg‘ona viloyati	580 459	35,0	494 052	32,9	86 406	56,4	14,9
13	Xorazim viloyati	281 009	34,7	240 978	32,7	40 031	54,7	14,2
14	Toshkent shahar	482 372	33,2	429 568	31,6	52 804	56,5	10,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotlar asosida tuzilgan.

O'tkazilgan tahliliy natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy ishsizlik darajasi 9,8 foizni (1,3 mln.kishi) tashkil etib turgan bir paytda, ushbu ko'rsatkich yoshlar o'rtasida 14,1 foizni (728,4 ming kishi, jami ishsizlarning 55,1%i) tashkil etdi. Bugungi kunda, norasmiy sektorda mehnat qilayotganlarning 38,4 foizi (2,3 mln.kishi) hamda xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarimizning 46,1 foizi (710,8 ming kishi) yoshlar ulushiga to'g'ri keldi. Har yili umumta'lim, o'rta-maxsus ta'lim va oliy ta'lim muassasalarini 600-800 ming nafar yoshlar tamomlab, mehnat bozoriga ilk marotaba kirib keladi. (1-jadval)

O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qistartirish va bandlik vazirligining asosli ma'lumotlariga tayangan holda o'tgan 2023 yil davomida tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlari tomonidan 228,2 ming nafar ish bilan band bo'lmagan yoshlar bandligiga ko'maklashildi va o'z biznesini tadbirkorlik faoliyatini boshlash bo'yicha xizmatlari ko'rsatildi. Xususan ishsiz va ish qidirayotgan yoshlarning 123,8 ming nafar korxona va tashkilotlardagi bo'sh (vakant) va kvota ish o'rinlariga ishga joylashtirildi, 22,1 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 66,2 ming nafar mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunar kurslariga qayta o'qitildi va ishga joylashtirildi, 14,5 ming nafar yoshlarga 589,5 mlrd.so'm miqdorida "Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi" hamda "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi" mablag'lari hisobidan subsidiya mablag'lari ajratildi, 74 ming nafar yoshlarga 1 637 mlrd.so'm oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida yagona elektron platforma orqali imtiyozli kreditlar ajratildi hamda 13,9 ming nafar ishsiz yoshlar ijtimoiy himoyaga olinib, ishsizlik nafaqasi tayinlandi (2-jadval).

2-jadval.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari tomonidan yoshlarga ko'rsatilgan bandlik xizmatlari to'g'risida

T/R	Hudud nomi	Jami ko'rsatilgan xizmatlar soni	shundan:					
			Ishga joylashtirilganlar soni	Jamoat ishlariga jalb etilganlar soni	Kasb-hunarga o'qitilganlar soni	Ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar soni	Subsidiya ajratilganlar soni	
							Soni	summasi
Jami:		228 283	123 860	22 163	66 388	13 947	1 925	10 780 404,0
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	21 043	11 445	1 584	6 597	1 240	177	1 057 698,0
2	Andijon viloyati	13 806	7 559	1 718	3 769	673	87	653 110,0
3	Buxoro viloyati	18 984	11 318	1 805	3 994	1 660	207	1 219 065,0
4	Jizzax viloyati	12 518	6 273	1 561	4 305	250	129	954 885,0
5	Qashqadaryo viloyati	20 452	10 869	1 862	6 073	1 473	175	1 185 365,0
6	Navoiy viloyati	8 711	4 892	777	2 353	682	7	27 235,0
7	Namangan viloyati	18 270	10 820	1 560	5 315	522	53	311 382,0
8	Samarqand viloyati	19 430	10 876	1 637	5 276	1 432	209	1 042 545,0
9	Surxondaryo viloyati	15 971	6 796	2 098	6 215	690	172	908 934,0
10	Sirdaryo viloyati	11 236	5 507	1 308	2 666	1 604	151	759 990,0
11	Toshkent viloyati	20 107	10 848	1 521	5 544	2 084	110	646 295,0
12	Farg'ona viloyati	17 026	9 056	2 573	4 497	679	221	1 294 750,0
13	Xorazm viloyati	17 229	8 716	1 583	5 875	896	159	593 960,0
14	Toshkent shahar	13 500	8 885	576	3 909	62	68	125 190,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Shuningdek nogironligi bo'lgan oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan shaxslarga alohida e'tiborga olingan. Bunga ko'ra mehnat organlari ko'magida 426 nafar oliy ta'lim muassasalarini bitirgan nogironligi bo'lgan bitiruvchilarni doimiy ishlarga joylashishiga ko'maklashildi. Shundan, 341 nafar bitiruvchilar davlat tashkilotlariga va 85 nafar bitiruvchilar xususiy sub'ektlarga ishga joylashtirildi. Tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish bandlik bo'limlari tomonidan o'rganish jarayonida 146 nafar bitiruvchi boshqa yo'nalishlarda bandligi ma'lum bo'ldi.

Bunda, 62 nafari ta'limning keyingi bosqichiga o'tganligi (magistratura, doktorantura), 12 nafari qisqa muddatli o'quv kurslarida ta'lim olayotganligi, 29 nafari bola tarbiyasi bilan bandligi, 9 nafari chet elga chiqib ketganligi (shundan, 6 nafari ishlash maqsadida, 3 nafari o'qish maqsadida), 32 nafari sog'ligini tiklash maqsadida davolanishda ekanligi, 2 nafari hisobdan chiqarilganligi (qamalgan, vafot etgan) aniqlandi [8].

Ma'lumot uchun, joriy yilda umumiy o'rta-ta'lim maktablari, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari soni 686,3 ming nafarni tashkil qilmoqda.

Shu bilan birga Qonunchilik takomillashtirildi, ya'ni o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislari uchun ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida lavozimlar va ishchilar kasblarining Yangi klassifikatori tasdiqlandi. Bunda, 2 163 ta mehnat bozoriga mos yangi lavozim va kasblar qo'shildi (atom energetikasi sohasi rahbar va mutaxassislari, yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar, MICE- mays turizm biznes menejerlari va mutaxassislari, turoperatorlar, tor doiradagi vrachlik yo'nalishlari va boshqalar). Natijada lavozim va kasblar soni 12 151 tagacha ko'paygan.

Klassifikatordagi oliy ma'lumot talab qiladigan mutaxassisliklar 70 %ni tashkil etgan bo'lsa, yangilangan klassifikatorda oliy ma'lumot talab qiladigan lavozimlar va mutaxassisliklar 43 %ga kamaytirildi.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlarni bandligini ta'minlash bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi.

Yagona milliy mehnat tizimi orqali bitiruvchilarning ishga joylashgnalik holati avtomatik tarzda monitoring qilib boriladi. Shuningdek, ta'lim muassasalari

bitiruvchilari bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida ularning bandligini ta'minlash choralari ko'rib boriladi.

Bitiruvchilarning bandlik ko'rsatkichlariga qarab ta'lim muassasalarini baholash reytingini yuritish tizimini joriy qilish muhim masala deb hisoblayman. Ta'lim muassasalarini baholash reytingini yuritish tartibini ishlab chiqish.

Bunda:

- Bitiruvchilarni egallagan ma'lumot va mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashganlik ko'rsatkichi;
- Respublika, viloyat va tuman (shahar) darajasidagi tashkilotlarga ishga joylashganlik ko'rsatkichi;
- Bitiruvchilarni davlat yoki xususiy korxonalarga ishga olinganligi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha baholab borilishi belgilanadi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining mutaxassislar toifasi uchun malakaviy talablar ro'yxatini shakllantirish hamda raqamlashtirish.

- Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan mutaxassislar toifasidagi lavozimlar bo'yicha malakaviy talablarni Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorlariga muvofiq ishlab chiqish;

- Ishlab chiqilgan malakaviy talablarni Yagona milliy mehnat tizimi (my.mehnat.uz)da raqamlashtirish va Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarning yagona ochiq portali (vacancy.argos.uz)ga integratsiya qilish.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini davlat fuqarolik xizmati organlari va tashkilotlarida muddatli mehnat shartnomasi asosida haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini o'tash tizimini joriy etish.

Bunda har bir vazirlik va idora mavjud shtat birliklari doirasida tanlov asosida yuqori reytingga ega bitiruvchilar muddatli mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilinadi.

- Bitiruvchilarni haq to'lash evaziga ishlab chiqarish amaliyotiga jalb etish bo'yicha milliy amaliyot va xorijiy tajribani o'rgangan holda kompleks tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash;

- Oliy ta'lim bitiruvchilarini haq evaziga muddatli mehnat shartnomasi asosida ishlab chiqarish amaliyotiga jalb etish tizimini joriy etish.

Kasb hunarga o'qitish, kasbga yo'naltirish (profrientatsiya) Mobil ilovani ishlab chiqish (maktab bitiruvchilariga);

O'rta ta'lim maktablarining 9-11 sinflari bitiruvchilarini kasbga qiziqishini aniqlash (kasbga yo'naltirish) uchun mobil ilova yaratish.

O'z-o'zini rivojlantirish uchun "Mening kasbiy tanlovim" mobil ilovasini yaratish.

"Mening kasbiy tanlovim" o'z-o'zini rivojlantirish uchun mobil ilovasi maktablarning 7-11 sinflarini o'quvchilarini shaxsiy salohiyatini rivojlantirishda qo'shimcha vosita sifatida yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. N.Imomova va D.Tohirova. "O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlash masalalari" Yangi O'zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari jurnali. №1 aprel 2022-yil

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 15.08.2017 yildgi F-5024-son.

3. Sh.R.Xolmo‘minov va K.Z.Xomitov. “Qishloq yoshlarini ish bilan ta’minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta’sirini aniq sotsiologik baholash” // Iqtisod va moliya jurnali. 2020 yil 1 son.

4. M.Mirzakarimova. “Ta’lim xizmatlari bozori va mehnat bozorini muvofiqlashtirish yoshlar bandligi omili sifatida” // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil.

5. Z.Zikriyev. “Xorijiy mamlakatlarning ishsiz yoshlar raqobatbardoshligini oshirish borasida tajribalari” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018 yil 4/2018 (№ 00036) www.iqtisodiyot.uz

6. Z.Shakrov “Yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish: muammo va imkoniyatlar” // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali №6, noyabr-dekabr oylari 2021-yil.

7. M.B.Tursunov. “Qishloq yoshlarining ish bilan bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli” // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2016 yil.

8. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allini qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar sarhisobi hamda asosli ma’lumotlar to‘plami.

9. Siroj Zarina Rustambekovna “Aholi demografik jarayonlarini statistik o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari” Ta'lim va gumanitar fanlar bo'yicha xalqaro konferentsiya materiallari may 2023-yil www.econferenceseries.com